



## TOHIR MALIK ASARLARIDA SALBIY SO‘ZLARNING STATISTIK TAHLILI

Ibragimova Mohitob Eldor qizi,  
Kompyuter lingvistikasi yo‘nalishi IV bosqich talabasi  
[mohitobibragimova@gmail.com](mailto:mohitobibragimova@gmail.com)  
ToshDO‘TAU


**Annotatsiyasi.** Maqolada taniqli o‘zbek yozuvchisi Tohir Malik asarlaridagi salbiy so‘zlarning statistik tahlili amalga oshirilgan. Sketch Engine platformasida Tohir Malik asarlarining mualliflik korpusi shakllantirilib, salbiy so‘zlarning chastotasi, ularning tahlili va kontekstual birikish imkoniyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot davomida muallif asarlaridagi leksik birliklarning qo‘llanilish chastotasi va lingvistik xususiyatlari aniqlangan. Ushbu ish mualliflik korpuslarini yaratish va ularni lingvistik tahlil qilish bo‘yicha muhim amaliy yondashuvlarni taklif qiladi.

**Kalit so‘zlar:** *Mualliflik korpuslari, Tohir Malik asarlari, Shekspir mualliflik korpusi, salbiy so‘zlar, statistik tahlil va tarkiblar.*

Mualliflik korpusi – bu matnlar to‘plami bo‘lib, u ma’lum bir muallif yoki mualliflar guruhiga tegishli bo‘lgan asarlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu korpus odatda tilshunoslik, adabiyotshunoslik, va kompyuter lingvistikasi sohalarida tilning xususiyatlarini o‘rganish uchun ishlataladi. Mualliflik korpuslari yordamida, masalan, tilning grammatika, stilistika, leksik va semantik xususiyatlari, muallifning tilga bo‘lgan yondashuvi, va asarlarning o‘ziga xosligini tahlil qilish mumkin.

Jahon yozuvchisi Shekspir mualliflik korpusi – bu ingliz adabiyotining klassik yozuvchisi Uilyam Shekspiring asarlarini o‘z ichiga olgan va uning asarlarini tahlil qilish uchun yaratilgan ma’lumotlar to‘plamidir. Shekspiring asarlar dunyo bo‘ylab keng tarqalgan va uning tilidagi o‘ziga xos xususiyatlar, uslubi, mavzulari, dramatik strukturalari, va boshqa jihatlarni o‘rganish uchun ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan. Shekspir mualliflik korpusining tuzilishi: Matnlar to‘plami, semantik va stilistik tahlil, qidiruv va tahlil vositalari[1].

Hozirgi kunda jahon kompyuter lingvistikasida ko‘plab korpuslar, xususan mualliflik korpuslari tizimli shaklda yaratilgan. O‘zbek tilshunosligida bugungi kunga qadar A.Navoiy va A.Qahhor mualliflik korpusining lingvistik bazasi yaratilgan bo‘lsa-da, dasturiy ta’minoti ishlab chiqilmagan. Shu sababli ham mualliflik korpusini ham lingvistik, ham dasturiy ta’minotini ishlab chiqish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ma’lum yozuvchi asarlari uchun mualliflik korpusini tuzishda muallif ijodiy merosini mukammal o‘rganish zarur. Negaki, korpus tarkibi, bo‘limlar soni muallif ijodining o‘ziga xos xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi[2].



### 1-rasm (Tohir Malik asarlari foizlarda diogramma shaklda)

Tohir Malik (1949-2020) – o‘zbek adibi, yozuvchi va jurnalist. “Iblis devori” qissasi 2018-yil “O‘qituvchi”, “Jinoyatning uzun yo‘li” qissasi 2021-yil “Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi”, “Talvasa” romani 2012-yil “Sharq” nashriyoti, “Ozod inson haqidagi qo‘sish” qissasi 2012-yil “Sharq” nashriyoti, “Charxpakalak” qissasi 2014-yil “Sharq” nashriyoti, “Shaytanat 1,2,3,4” romanlari 2019-yil “Sharq” nashriyotlari tomonidan nashr etilgan.

Nº	Asarlari	Yozilgan yili	Janri	Uslubi	Adabiy turi	Manbasi	Nashriyoti	Nashr yili
1	Shaytanat 1	1992-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 18-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
2	Shaytanat 2	1995-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 19-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
3	Shaytanat 3	1997-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 20-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
4	Shaytanat 4	2000-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 21-jild	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
5	Talvasa	1992-yil	roman	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar. 11-jild	“Sharq” nashriyoti	2012-yil
6	Alvido bolalik	1989-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Alvido bolalik. Qissa	Yangi Asr Avlodni	2015-yil
7	Charxpakalak	1999-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Charxpakalak. Qissa	“Sharq” nashriyoti	2014-yil
8	Iblis devori	2006-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Iblis devori. Qissa	O‘qituvchi	2018-yil
9	Jinoyatning uzun yo‘li	2004-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Jinoyatning uzun yo‘li. Qissa	Tohir Malik nomidagi nashriyot uyi	2021-yil
10	Murdalar gapirmaydilar	1999-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Murdalar gapirmaydilar. Qissa	“Sharq” nashriyoti	2019-yil
11	Ozod inson haqidagi qo‘sish	1987-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Tanlangan asarlar 11-jild	“Sharq” nashriyoti	2012-yil
12	Savohil	1987-yil	qissa	badiiy	epik	Tohir Malik. Savohil. Qissa	O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi	2018-yil
13	Qarg’ish		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik.Qarg’ish. Hikoya	Ziyouz.com	
14	Xotira		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik. Xotira. Hikoya	Ziyouz.com	
15	Zilzila		hikoya	badiiy	epik	Tohir Malik. Zilzila. Hikoya	Ziyouz.com	



“Iblis devori”(2018)

Ushbu qissa, ijtimoiy-siyosiy mavzularga qaratilgan bo‘lib, insonning ichki maqsadlari, ishonchliligi va axloqiy dilemmasi haqida hikoya qiladi. “Iblis devori” atamasi diniy va ruhiy jihatlarni ko‘rsatadi, uning asosi – insonning o‘z-o‘zini tanishi va shaxsiy qiyinchiliklarini yengishdir.

“Jinoyatning uzun yo‘li” (2021)

Bu qissada jinoyat vaadolat, jinoyatchilikning kelib chiqishi va uning ijtimoiy jihatlari yoritilgan. Tohir Malik asarda jinoyatlarning nafaqat tashqi ko‘rinishini, balki uning inson ruhiyatiga, ichki dunyosiga ta’sirini ham ko‘rsatadi.

“Ozod inson haqidagi qo‘shiq” (2012)

Asarda erkinlik va insonning o‘ziga xosligini qidirishi, shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy chekllov larga qarshi kurashi mavzusi ko‘tarilgan. Tohir Malik o‘z asarida shaxsning o‘z haq-huquqlarini izlash va jamiyatning ma’naviy qiyinchiliklariga qarshi kurashni yoritadi.

“Charxpalak”(2014)

Ushbu qissada, insonning hayotdagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini, xususan, ijtimoiy tizimdagini va shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlarga moslashishning qiyinchiliklarini ko‘rsatadi. Bu asarda, hayotning doimiy aylanishi va insonning bu aylanishdagi o‘rni haqida chuqur tahlil mavjud.

“Shaytanat”1,2,3,4 (2019)

Ushbu romanlar to‘plamida, insonlarning ma’naviy va axloqiy jihatlari, shuningdek, yovuzlik va adolatning tasviri mavjud. Tohir Malikning bu asarlarida ijtimoiy va ma’naviy muammolarni yoritish orqali, insonning ijtimoiy tizimdagini o‘rni va o‘zining ichki kurashlarini aks ettiradi. Romanda insonning qiyinchiliklari va murakkab hayotiy sharoitlarining yomonlashuvi aks etgan.

Tohir Malik asarlarida insonning ichki dunyosi, psixologik holatlari va axloqiy dilemmasi asosiy o‘rin tutadi. Uning asarlari chuqur tahliliy, psixologik va falsafiy xarakterga ega bo‘lib, insonning jamiyatdagi o‘rni,adolat, erkinlik va hayotdagi maqsadlarni izlashning murakkabligini o‘rganadi. U o‘z asarlarida nafaqat individual tajribalarni, balki jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ham tasvirlaydi, bu esa o‘quvchiga o‘zgaruvchan va murakkab dunyoda yashashni anglashda yordam beradi. Tohir Malikning asarlari kitobxonni chuqur o‘ylashga undaydi, ijtimoiy va axloqiy masalalar bo‘yicha muhim savollarni qo‘yadi.

Avvalo, Tohir Malik asarlari yig‘ib olindi. Korpus uchun Tohir Malikning 14 asaridan foydalanildi. Ular qissalar, romanlar, hikoyalardan iborat. Birinchi, asarlarni ziyo.uz saytidan foydalangan holda pdf shaklda yuklab olindi va uni Sketch



Engine platformasiga joylashtirish uchun standart shaklga keltirildi. Ikkinci, avval barcha pdf formatdagи fayllar txt formatga o'tkaziladi. Uning uchun onlayn [convertio.co/ru/pdf-txt/](https://convertio.co/ru/pdf-txt/) [3] saytidan foydalilanadi va ba'zi fayllar krilcha shaklda bo'lganligi tufayli, ularni lotin tiliga o'tkaziladi, uning uchun ham tayyor onlayn saytlardan foydalansa bo'ladi[4]. Bu sayt pdf formatdan txt formatga o'tkazib beradi. Uchinchi, bu txt fayllarni Subline Textdan foydalangan holda tozalab olinadi. Tozalashda, har bir gaplar alohida qilinadi, ba'zi so'zlar xatoliklari, keraksiz simvollar, tinish belgilari olib tashlanadi.

Barcha asarlar yig'ilib, tozalanib bo'lgach, fayllar Sketch Engine platformasiga joylash boshlanadi. Avvalo, ushbu platformadan ro'yxatdan o'tish kerak (2-rasm). Ro'yxatdan o'tgandan so'ng platformadan faqat 1 oy mobaynida tekin versiyada ishlatingiz mumkin.

### Sign up Free 30-day trial subscription

E-mail \*   
required

Full name

I will use Sketch Engine mainly for  - select -

I work or study at  - select -

Country \*  Uzbekistan

Organization name

I agree to the [Terms of use](#)  
 Inform me about new corpora and functions  
 I agree to the [processing of personal data](#)

### 2-rasm (Ro'yxatdan o'tish)



Name	Tohir Malik
Corpus type	<input checked="" type="radio"/> Single language corpus <input type="radio"/> Multilingual corpus
Language	Uzbek
Description	Tohir Malik mualliflik korpusi


### 3-rasm (Korpusni nomlash)

Undan so‘ng o‘z mualliflik korpusingizni yaratishni boshlashingiz mumkin. Buning uchun **New corpus** bo‘limidan, korpus nomi va tilini kiritib, korpusning dastlabki holati yaratib olinadi (3-rasm).

Bu bosqichdan so‘ng korpusga ma’lumotlarimizni kiritishni boshlaysiz. Bizning qo‘limizda mavjud bo‘lgan matnlardan foydalanib, **I have my own texts** bo‘limiga, txt fayllar yuklanadi (4-rasm).

**CORPUS:** Tohir Malik (Uzbek)

CREATE CORPUS > ADD TEXTS > COMPILE



### 4-rasm (txt fayllarni korpusga yuklash)

Sketch Enginening 1 oylik tekin versiyada faqat 1 mln so‘zdan iborat korpus yaratish mumkin. Fayllar yuklangach **Corpus content** qismida matnlarning necha so‘zdan iborat ekanligini ko‘rsatadi. Joylashtirilgan Tohir Malik asarlari **826055** so‘zdan iborat bo‘ldi.

Tohir Malik asarlarida salbiy so‘zlar statistikasini aniqlash uchun birinchi navbatda Sketch Engine platformasidan Wordlist Frequency list bo‘limiga o‘tiladi.



U bo'limda 3 xil ko'rinishda qidiruv berish mumkin. **Starting with** (bilan boshlanib), **ending with** (bilan tugaydigan), **containing** (o'z ichiga olgan) qismlari bor (5-rasm), ushbu holatda **starting with** qismi bilan qidiruv berildi.

The screenshot shows a search interface with the following parameters:

- find ? words**: The search term is "starting with".
- all**: The search scope is set to "all".
- starting with**: This option is selected.
- ending with**: This option is available but not selected.
- containing**: This option is available but not selected.
- GO**: The search button.
- abc**: A note indicating "required".

## 5-rasm (Qidiruv berish)

Bu yerga salbiy so'zlar “yomon”, “o'lim”, “qotil”, “xunuk” so'zlarini qidiruvga berildi (6-rasm) va ushbu jadval hosil bo'ladi (1-jadvalga qarang).

*1-jadval. Qidiruv natijasi*

So'z	Soni	Qidiruv shakli
Yomon	356 marta	starting with
Azob	144 marta	starting with
Xunuk	74 marta	starting with
Qotil	51 marta	starting with
O'lim	44 marta	starting with

The screenshot shows a concordance search interface with the following details:

- simple qotil • 51**: The search term is "qotil".
- 45.9 per million tokens • 0.0046%**: The frequency of the word.
- Left context KWIC Right context**: The view mode is KWIC.
- Results:**
  - 1 doc#0 Jlarni o'sha o'lgan odamning o'zi boshlab yurganmish. « **Qotil** qani?» deb baqirisharmash. Asror uni ko'rgan san «Tink
  - 2 doc#4 <S>JINOYaT KO'ChASINING OCHIQ DARVOZASI Ostona hatlangach **Qotil** ...13 yoshda?</S><S>Rasulilloh dedilarim: ...bolalarizingizni ur
  - 3 doc#4 midagi jinoyatning 70 foizi aynan shu badmastlik oqibati ekan.<S><S> **Qotil** o'smirlarning yarmidan ko'proq'i jinoyat qilayotganlarda mast bo'ladiilar
  - 4 doc#4 Unda bir yigitchaning o'z kenoynini o'dirishi tafsiloti berilgan.<S><S> **Qotil** jinoyat sodir bo'lishidan anchha avval boshidan jarohatlangan ekan.</S>
  - 5 doc#4 kasallik yo'q, deb xulosa berishgan.<S><S>Ularning ta'skidlashilaricha, **qotil** kenoynisi dazmol bilan urishdan oldin uni elektr lokidan uzgan, murd
  - 6 doc#4 xalqda ejinnligi (yoki kasalligi) tutib goldi, deb ham ataydilar.<S><S> **Qotil** bilan kenoyi orasidagi janjanli ketlib chiqargan yana bir omil bo'lishi i
  - 7 doc#4 in urilgani tufayli jon bergan.<S><S>Temir tayoqda barmoq izlari yo'q - **qotil** artib tashlashga ulgurgan.</S><S>Aybdorlardan ikkitasi «temir tayoq O
  - 8 doc#4 in qotillarni olib ko'raylik: huquq nuqtai nazaridan ularning nomlari bir - **qotil** .</S><S>Ammo qotilik sababları va bajarish usullari har hil bo'lganidek
  - 9 doc#5 -shara Tursunalinii qo'rquvuga soldi.<S><S>Agar hozir unga: «Bu odam **qotil** emas, qufbuzariaming ustasi», — deb haq gap aytilsa ham ishonmag;
  - 10 doc#5 esa «buqacha» deb turibdi <S><S>«Demak, o'ynashmi?</S><S>Unda **qotil** kim?</S><S>Erimi?..</S><S>Xotinini birov bilan aysh qilib yotganini ko'
  - 11 doc#5 y'radi: — Gaplarimdan xafa bo'Tirang, aka, mantiqan olib qa-ralsa, «er **qotil** » degan xulosa kelib chiqadi.</S><S>Lekin bunaqa olim odamlarda ras
  - 12 doc#5 u xonadondan dastlabki gumoniga quv-vat olgan holda chiqdi.<S><S> **Qotil** qizning otasi bo'Tishi ham mumkin, degan yana bir gumoni olinajak ma

## 6-rasm (Qidiruv natijasining korpusdagi ko'rinishi)



Yanada yuqori aniqlikka erishish uchun ko‘proq salbiy bo‘lgan so‘zlarni qidiruvga berish kerak bo‘ladi. Ushbu so‘zlarning so‘z shakllarini ham ko‘rib chiqishim mumkin, buning uchun “qotil” so‘zining so‘z shakllarini olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval. “Qotil” so‘zining so‘z shakllari

№	So‘z	Soni	№	So‘z	Soni	№	So‘z	Soni
1	qotil	51	13	qotilsiz	3	25	qotilligini	1
2	qotillik	45	14	qotillarning	3	26	qotilim	1
3	qotilni	20	15	qotilga	3	27	qotillikni	1
4	qotillar	19	16	qotillikning	2	28	qotillikdan-chi	1
5	qotillikdan	11	17	qotillik-u	2	29	qotillarga	1
6	qotillarni	10	18	qotilligi	2	30	qotillardan	1
7	qotillikni	9	19	qotillarmi	2	31	qotilliklar	1
8	qotili	8	20	qotillari	2	32	qotilliklarning	1
9	qotillikka	7	21	qotilimni	2	33	qotillaridan	1
10	qotilini	7	22	qotilnimi	1	34	qotilingiz	1
11	qotillikda	6	23	qotillarigacha	1			
12	qotilning	6	24	qotilik-chi	1			

**Xulosa.** Mazkur tadqiqotda Tohir Malik asarlaridagi salbiy so‘zlarning statistik tahlili amalga oshirildi va ularning matn tuzilishidagi o‘rni, ma’no yuklanishi hamda til uslubiga ta’siri chuqur tahlil qilindi. Sketch Engine platformasida yaratilgan mualliflik korpusi yordamida, salbiy so‘zlarning chastotasi, birikish imkoniyatlari va turli kontekstlardagi ma’nodorligi o‘rganildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, yozuvchi salbiy leksik birliklarni o‘ziga xos uslubda qo‘llash orqali o‘quvchida kuchli hissiy rezonans uyg‘otadi va asarlarining mavzuviy chuqurligini oshiradi. Tohir Malikning ijodi inson psixologiyasi va jamiyat muammolarini aks ettirishda o‘ziga xos bo‘lib, salbiy so‘zlardan foydalanish asarlarining umumiy falsafiy yo‘nalishini belgilab beradi.

Ushbu ish nafaqat lingvistik korpuslarni yaratish sohasidagi yangi yondashuvlarni rivojlantiradi, balki o‘zbek adabiyoti va tilshunosligida muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Kelgusida bu kabi tadqiqotlar o‘zbek yozuvchilarini ijodiy uslubini aniqlash va ularning asarlarini tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirishga yordam beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. opensourceshakespeare.org
2. <https://compling.navoiy-uni.uz/index.php/conferences/article/view/1038/1033>



3. [convertio.co/ru/pdf-txt/](http://convertio.co/ru/pdf-txt/)
4. <https://parsing.uz/>
5. [https://app.sketchengine.eu/#wordlist?corpname=user%2Fmohimibra0204%2Ftohir\\_malik&tab=classic&keyword=qotil&filter=startingWith&wlattr=lc&wlminfreq=0&include\\_nonwords=1&itemsPerPage=50&showresults=1&cols=%5B%22frq%22%5D&showtimelines=0&diaattr=&showtimelineabs=0&timelinesthreshold=5](https://app.sketchengine.eu/#wordlist?corpname=user%2Fmohimibra0204%2Ftohir_malik&tab=classic&keyword=qotil&filter=startingWith&wlattr=lc&wlminfreq=0&include_nonwords=1&itemsPerPage=50&showresults=1&cols=%5B%22frq%22%5D&showtimelines=0&diaattr=&showtimelineabs=0&timelinesthreshold=5)
6. [https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/364348858\\_KORPUS\\_LINGVISTIKASI](https://www.researchgate.net/profile/Manzura-Abjalova/publication/364348858_KORPUS_LINGVISTIKASI)
7. [https://tsuull.uz/sites/default/files/dissertasiya\\_gulomova\\_compressed.pdf](https://tsuull.uz/sites/default/files/dissertasiya_gulomova_compressed.pdf)